

DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN CHO‘L YAYLOVLARI FLORASINI TIKLASH YO‘LLARI

Tursinbayev Mirzabek Urinbay uli

ORCID ID: 0009-0009-1073-7421,

Saidova Munisa Ergashevna

ORCID ID: 0009-0009-1073-7421

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada degradatsiyaga uchragan cho‘l yaylovlari mahsuldorligini tiklash bo‘yicha amalga oshirilgan dala tajribalari davomida olingan natijalari keltirilgan. Ta‘kidlanishicha qumli cho‘l tuproqlarining unumdorligini tiklash, saqlash, oshirish va himoya qilishga yo‘naltirilgan agroteknikaviy tadbirlarni ishlab chiqish, tuproq degradatsiyasi jarayonini oldini olish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu borada yaylovlarni fitomeliyoratsiyalash orqali hosildorligini oshirish texnologiyalari qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: qurg‘oqchilik, tabiiy o‘simlik qoplami, qumli-cho‘l tuproqlar, tuproq xossalari, degradatsiya jarayonlari, mahsuldorlik, hududning tabiiy-iqlim sharoitlari.

Аннотация. В статье представлены результаты полевых опытов по восстановлению продуктивности деградированных пустынных пастбищ. Подчеркивается необходимость разработки агротехнических мероприятий, направленных на восстановление, сохранение, повышение и защиту плодородия песчаных пустынных почв, а также реализация комплексных мер по предотвращению деградации почв. В связи с этим особое значение в эффективном использовании сельскохозяйственных угодий приобретают технологии повышения продуктивности путем фитомелиорации пастбищ.

Ключевые слова: засуха, естественный растительный покров, песчаные пустынные почвы, свойства почв, деградационные процессы, продуктивность, природно-климатические условия региона.

Abstract. The article presents the results of field experiments on restoration of productivity of degraded desert pastures. The necessity of development of agrotechnical measures aimed at restoration, preservation, increase and protection of fertility of sandy desert soils, as well as implementation of complex measures on prevention of soil degradation is emphasized. In this regard, technologies of increase of productivity by phytomelioration of pastures acquire special significance in effective use of agricultural lands.

Keywords: drought, natural vegetation cover, sandy desert soils, properties of soils, degradation processes, productivity, natural and climatic conditions of the region.

Kirish. Bugungi kunda iqlimning keskin o‘zgarishi natijasida hamda yaylov yerlaridan tartibsiz foydalanish oqibatida yuzaga kelayotgan yaylovlar degradatsiyasi jarayonlarini o‘rganish har doimgidan ham muhim hisoblanmoqda. Shuningdek cho‘l va yarim cho‘l hududlarida kuzatilayotgan keskin ekstremal ekologik sharoitlar, bundan tashqari chorva mollarining nazoratsiz va tartibsiz boqilishi yaylovlarning degradatsiyasini jadallashtiruvchi asosiy omillar qatorida turadi. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq Xo‘jaligi Vazirligi hisobotiga ko‘ra, 25,6 million gektar yaylovlarning 20 foizi degradatsiyaga uchragan, yaylovlarning 30 foizi o‘simlik qoplamini yo‘qotgan, 2 million gektarga yaqin sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlarining 45 foizi sho‘rlanishga uchragan, 69 foiz yerlar esa 1 foizdan kam gumus miqdoriga ega. Bu borada yaylov yerlari holatini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish masalalari qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [1,6,8].

Dunyoda cho‘l yaylovlari kechayotgan degradatsiya, cho‘llanish va qurg‘oqchilik jarayonlari jadalligini baholash, yaylovlar holatini tabiiy hamda antropogen omillar ta‘sirida o‘zgarishini aniqlash, baholash, bashorat qilish, degradatsiyaga uchragan yaylov tuproqlarini tiklash, yaylovlar mahsuldorligini hamda biologik xilma-xilligini oshirish, yaylov yerlaridan samarali foydalanish usullarini tadbir etish bo‘yicha ilg‘or tajribalar ilgari

surilmoqda[3,9,10]. Shu bois, cho‘l yaylovlari tuproqlaridan samarali foydalanishni ilmiy asoslangan holda boshqarish masalalari orqali qurg‘oqchil mintaqalarda ozuqabop o‘simliklarni yetishtirish samaradorligini oshirish, ushbu ekotizimlarni saqlash va barqaror rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, degradatsiyaga xavfli yerlarni aniqlash va ulardan muhofaza qilish bugungu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi [2,4,7].

Materiallar va usullar. Tadqiqot obyekti sifatida Navoiy viloyati Nurota tumani cho‘l yaylovlari tarqalgan qumli-cho‘l tuproqlari tanlangan. Tadqiqotlarda dala tajribalari «Dala tajribalarini o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmasi» va Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutida ishlab chiqilgan «Введение в культуру пустынных кормовых растений» uslubiy ko‘rsatmasi bo‘yicha bajarildi.

Natijalar va munozara. Cho‘l chorvachiligi hayvonlari butun yil mobaynida tabiiy cho‘l yaylovlari dagi o‘simliklar bilan oziqlantiriladi. Bu borada tabiiy cho‘l o‘simliklari hosildorligi past bo‘lishiga qaramasdan eng arzon ozuqa manbai sifatida tan olingan, shu bois yaylovlarni fitomeliyoratsiyalash orqali hosildorligini oshirish texnologiyalari qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tajribada tashkil etilgan pilot uchastkaga izen o‘simligi gektariga 3-4 kg dan urug‘lari shudgorlangan joylarga dekabr oyi boshida qo‘lda sepish usulida ekildi.

**Navoiy viloyati Nurota tumani Qizilcha massividagi yaylovlaridan samarali foydalanishning prognoz ko‘rsatkichlari
(2023-yil holatiga)**

(119,9 ming gektar bo‘lib, shundan 114,867 ming gektari yaylov va pichanzorlar hisoblanadi)

T/r	Yaylovlarning degradatsiyaga uchraganlik darajasi	Degratsiyaga uchragan maydon, ga	Pilot uchastka maydoni, ga	Izen o‘simligidan o‘rta hisobda olinadigan urug‘ hosili, kg/ga					
			2021	2024	2025	2026	2027	2028	2029
1	Degradatsiyaga uchragan maydon	1409	$\frac{18 \text{ kg}}{1 \text{ ga}}$	$\frac{18}{3,6}$	$\frac{64,8}{12,96}$	$\frac{233,2}{46,65}$	$\frac{839,08}{167,81}$	$\frac{3020,6}{604,12}$	$\frac{10874,1}{2174,82}$

Bunda pilot uchastkada tashkil etilgan 11,25 sotoklik (1125 m²) maydondan 2023-yilda 5,4 kg izen urug‘i olindi. Demak, 1 gektardan o‘rtacha 15,0 kg dan izen urug‘ini olish mumkinligi aniqlandi.

O‘z navbatida 2022-yilda pilot uchastkadan tashqari, 1,5 gektar maydonga izen urug‘i ekildi va 67,5 kg urug‘ olishga erishildi.

Bu erda shuni alohida ta’kidlash kerakki, mamlakatimizning Qarnabcho‘l sharoitida izen o‘simligidan 3-4 yillarda 60-80 kg gacha urug‘ olinganligi aniqlangan [5].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, biz tomondan olib borilgan tadqiqotlarda Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Qizilcha massivi cho‘l yaylovlaridan samarali foydalanishning prognoz ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Bunda tumanda degradatsiyaga uchragan 1409 gektar cho‘l yaylov maydonini tanlab olingan izen o‘simligi orqali qayta tiklash uchun kerak bo‘ladigan izen urug‘i (kg) hamda qayta tiklashga ketadigan muddat (yil) aniqlandi.

Biz tomondan olib borilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, 2024-yilda – 3,6 ga/18 kg urug‘, 2025-yilda – 12,96 ga/64,8 kg urug‘, 2026-yilda – 46 ga/233,2 kg urug‘, 2027-yilda – 167,81 ga/839,08 kg urug‘, 2028-yilda – 604,12 ga/3020,6 kg urug‘, 2029-yilda – 2174,84 ga/10874,1 kg urug‘ kerak bo‘ladi (1-jadval).

1-yil olingan urug‘ hosildorligi orqali prognoz qilindi ya’ni 1-yil gektariga 18 kg urug‘ olingan bo‘lsa 2024 yildan hisoblab gektariga 5 kg dan ekiladigan bo‘lsa (Shamsutdinov, Ibragimov, 1983).

Demak, o‘rganilgan hududdagi degradatsiyaga uchragan 1409 gektar maydonlarni tiklash uchun jami 6 yil (2024-2029-yillarda) 10874,1 kg (10 tonna 874 kg) mobaynida izen urug‘i bilan qayta tiklash mumkinligi prognoz qilindi.

Olib borilgan izlanishlar natijasida, Qizilcha massivi hududidagi turli darajada degradatsiyaga uchragan 1409 gektar maydon qayta tiklash uchun yer tuzish loyihalari asosida istiqbolli hisoblangan izen o‘simligi urug‘idan sun‘iy agrofittosenoz tashkil etish orqali yiliga o‘rtacha 3 barobardan ortiqcha olinishi mumkinligi isbotlandi.

Ushbu holatni biz tomondan tahlil qilingan prognoz ko‘rsatkilar ham isbotlaydi. Masalan, sun‘iy agrofittosenoz tashkil etish orqali yiliga o‘rtacha 3 barobardan ortiqcha izen o‘simligi urug‘i yetishtirish hisobiga, unga proporsional ravishda to‘g‘ri keladigan qayta tiklanadigan yaylov maydonini ham 3 barobarga ortib borishiga erishiladi. Bu borada turli darajada degradatsiyaga uchragan yaylov yerlarida yer tuzish loyihalari asosida sun‘iy agrofittosenoz tashkil etish talab etiladi.

Xulosa. Qizilcha massivi cho‘l xududi sharoitida ekishdan oldin tuproqqa ishlov berishning samarali usuli erni 25-30 sm chuqurlikda shudgorlash va molalash hisoblanadi. Izenning (Otavniy) navi 3-5 kg/ga, Tereskenning (To‘lqin) navi 5-7 kg/ga hamda Cho‘g‘onning (Jayxun) navi 12-14 kg/ga me‘yorlarida urug‘lar tuproqqa 0,5-2 sm chuqurlikka ekilganda 1 gektardagi optimal o‘simliklar tup sonini 12-15 ming tupga oshirishga erishish mumkin.

Tuproqni shudgorlash+mola bosish orqali istiqbolli ozuqabop yaylov o‘simliklari ekilganda, Izenning «Otavniy» navida o‘rtacha hosildorlik 5,3 ts/ga, Cho‘g‘onning «Jayxun» navida o‘rtacha hosildorlik 3,8 ts/ga hamda tereskenning «To‘lqin» navi ekilgan varinatda hosildorlik ko‘rsatkichi 2,5 ts/ga ni tashkil qildi.

Degradatsiyaga uchragan yaylovlarni Ozuqabop izen o‘simlik navlarini 1 gektar maydonga ekish orqali yaylovlar hosildorligining kamida 5,3 ts/ga bo‘lishiga erishildi.

ADABIYOTLAR:

1. M. Ismoilov, J. Ibragimov Adir yoylovlar hosildorligini oshirishning muhim tadbiri // Agro ilm. Ilmiy amaliy jurnal . – Toshkent, 2015. - №5 [37]. – B.46-47
2. Maxmudov M.M. Inqirozga uchragan cho‘l yaylovlarini yaxshilashning ekologik asoslangan texnologiyasi Toshkent., 2005. – B.12
3. Rabbimov A. Cho‘l yaylovlari hosildorligini oshirishning introduksiya va seleksiya asoslari: Q.x.f.d. (DSc) ..dissertatsiya avtreferati. - Toshkent, 2022. - 67 b.
4. Tangirov A. Cho‘l yaylovlaridan foydalanish samaradorligini oshirish // Agro ilm. Ilmiy amaliy jurnal . – Toshkent, 2016. - №5 [43]. – B.28-29
5. Xalilov X.X., Bekchanov B., Mamatovlar T.O. Adir mintaqasida yaylovlar hosildorligini aniqlash tajriybalari // Chorvachilik va naslchilik ishi. Ilmiy amaliy jurnal. – Toshkent, 2021. - №04. – B.35-36
6. Xolto‘rayev Sh., Muxammadiyev Q. Cho‘l hududlarida o‘rmonchilikni rivojlantirish ilmiy markazi tashkil etildi // O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. Ilmiy ommabop jurnal. - Toshkent, 2021. - №6. – B.24
7. Yuldashev N., Yaylov tuprog‘ining kimyoviy tarkibi va gelmintozlar tarqalishi // O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. Ilmiy ommabop jurnal. - Toshkent, 2010. - №6. – B.25
8. Асланов Н.Н. Состав и свойства отдельных фракций механического состава светлого серозема / Труды ТашГУ, вып 291. – Т., 1966. – 42 с.